

"NKMK jamg'armasi" Davlat muassasasi  
Tijorat bo'limi  
Navoiy shahri  
RO'YXATGA OLINDI

XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI №36

"16" dekabr 2022 yil.

No 38-75-22

2022 y. "16" 12

«Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasi» davlat muassasasi, keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi, nomidan 2022-yil 5-yanvardagi 01-06-01/7-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi bosh muhandis A.A. Ibragimov, bir tomondan va «**THERMOPORT**» ma'suliyati cheklangan jamiyati direktori Xvan Dmitriy Vladimirovich, keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi, nomidan korxonasi ustavi asosida faoliyat yurituvchi direktor D. V. Xvan boshqa tomondan, birgalikda, keyingi o'rinlarda «Tomonlar» deb yuritiladi, mazkur shartnomani (bundan buyon matnda - «Shartnoma») quyidagilar haqida tuzdilar:

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Bajaruvchi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasi" Davlat muassasasi tasarrufidagi "ZARAFSHON" Hududiy boshqarmasi "GORNIAK" sport-sog'lomlashtirish maskani "Jismoniy-sog'lomlashtirish kompleksi"ga elektr qozonlari o'rnatish ishlari (keyingi o'rinlarda - Xizmatlar deb yuritiladi) ko'rsatish, Buyurtmachi ushbu xizmatlarni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Xizmatlarning aniq turlari, ularning soni, sifati va kafolati mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan, ilovada keltirilgan Texnik topshiriqqa muvofiq amalga oshiriladi.

1.3. Xizmatlarni ko'rsatish muddati Buyurtmachi avans to'lovni amalga oshirgan kundan boshlab, 15 ish kunida 2022 yil "16" 12 dan 2022 yil "31" 12 gacha amalga oshiriladi.

### II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

#### 2.1. Buyurtmachining huquqlari:

2.1.1. Bajaruvchidan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. Bajaruvchidan Xizmatlar Buyurtmachining hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. Bajaruvchidan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan Xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. Zarur sifatga ega bo'lmagan Xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda Buyurtmachi o'z tanlashiga ko'ra:

- talab qilingan sifatga ega bo'lmagan Xizmatlar shunga o'xshash sifatli Xizmatlar bilan almashtirilishini;

- Xizmatlarning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar Buyurtmachi yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;

- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini Bajaruvchidan talab qilish.

#### 2.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

2.2.1. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.2. Shartnoma bo'yicha xizmatlar uchun to'lovni to'lash.

#### 2.3. Bajaruvchi quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan Xizmatlar uchun to'lovlarni shartnomada belgilangan tartibda amalga oshirilishini talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini Buyurtmachidan talab qilish.

#### 2.4. Bajaruvchi quyidagilarga majbur:

2.4.1. Shartnoma bahosi belgilangan tartibda to'langandan so'ng xizmatlarni ko'rsatish;

2.4.2. Buyurtmachiga xizmatlarni mazkur shartnomaga muvofiq yoki Buyurtmachi tomonidan mazkur shartnomaning 4-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar xizmatlarni ko'rsatish jarayonida Bajaruvchi shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'yan bo'lsa, Buyurtmachining talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda tekin tuzatib berish.

### III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning umumiy bahosi 434 210 000,00 (to'rt yuz o'ttiz to'rt million ikki yuz o'n ming) so'mni tashkil etadi.

3.2. Buyurtmachi ko'rsatiladigan Xizmatlar turkumi summasining 50 foizi miqdorida (shartnoma imzolangan kundan 5 ish kuni muddatda) oldindan haq to'laydi va ko'rsatilgan Xizmatlar uchun qabul qilish-topshirish

dalolatnomasi imzolanganidan keyin Xizmatlar turkumi summasining 50 foizi miqdorida (qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin 5 ish kuni muddatda) to'lovni amalga oshiradi.

3.3. Ko'rsatilgan Xizmatlar uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

#### **IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI**

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hamda qonunosti hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

4.3. Bajaruvchi Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma xizmatlarning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin beriladi.

4.4. Buyurtmachi ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud Xizmatlarning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda Bajaruvchini buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

#### **V. ISH VA XIZMATLAR NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI**

5.1. Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi;

-Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini olgandan so'ng 10 kalendar kuni mobaynida Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi. Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 kalendar kun muddat ichida kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik bo'yicha rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart;

-Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kalendar kun muddatda uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kalendar kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

#### **VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Tomonlardan biri shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni belgilangan muddatlarda qisman yoki to'liq bajarmaganda Qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

#### **VII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

7.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

#### **VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI**

8.1. Mazkur shartnoma 2022-yil "16" 12 dan 2022-yil "31" 01.23. gacha amalda bo'ladi.

8.2. Tomonlarning majburiyatlari ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

#### **IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLARI**

9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda, Tomonlar, ularning manfaatdor shaxslar, direktorlar, mansabdor shaxslar, xodimlar yoki boshqa vakillar, yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar pul to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, hech qanday pul mablag'lari yoki qadriyatlarini to'lashni ko'maklashmaydilar va / yoki ruxsat bermaydilar, har qanday shaxsga har qanday noqonuniy afzalliklar yoki boshqa noqonuniy maqsadlarni qo'lga kiritish uchun ularning harakatlariga yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun bevosita yoki bilvosita ko'maklashmaydilar. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda, Tomonlar, ularning manfaatdor shaxslar, direktorlar, mansabdor shaxslar, xodimlar yoki boshqa vakillar, yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar Shartnoma maqsadlari uchun amal qiladigan qonun hujjatlariga muvofiq, masalan, pora berish / olish, tijorat pora berish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzadigan harakatlarni bajarmaydilar.

9.2. Agar Tomon Shartnomaning ushbu bo'limining har qanday qoidalari buzilganligi yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Tomon shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini, buzilish sodir

bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmashligi tasdiqlanmaguncha to'xtatib turishga haqli. Bu tasdiq yozma xabar berilgan kundan boshlab 14 kalendar kuni ichida yuborilishi kerak.

9.3. Agar Tomonlardan biri ushbu bo'limda taqiqlangan harakatlardan tiyilish majburiyatlarini buzsa va /yoki boshqa Tomon buzilish Shartnomada ko'rsatilgan muddatda sodir bo'lmagan yoki sodir bo'lmashligi haqidagi tasdiqni olmagan bo'lsa, boshqa Tomon bitimni bekor qilish to'g'risida yozma xabar yuborish orqali Shartnomani bir tomonlama to'liq yoki qisman bekor qilish huquqiga yega. Shartnomaning ushbu bo'limi qoidalariga muvofiq tashabbusi bilan shartnomani bekor qilingan tomon bunday bekor qilish natijasida yuzaga kelgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

## X. SHARTNOMANING QONUNYIY KUCHGA KIRISHI

10.1. Tomonlar mazkur Shartnomani imzolagan kundan boshlab, Shartnoma qonuniy kuchga kiradi.

## XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

11.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

11.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan tuzilgan bo'lib, Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

## XII. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

### Buyurtmachi

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati  
jang‘armasi” davlat muassasasi

Navoiy shaxri, Navoiy ko‘chasi, 21.

x/r 20210000405386982001

Milliy bank TIF UzR

MFO: 00196

STIR: 308150922

tel: (90)227-2935-7401

A. A. Ibragimov



### Bajaruvchi

“THERMOPORT”

ma'suliyati cheklangan jamiyati

Toshkent sh., Chilonzor t., Arnasoy ko‘chasi, 4-33.

x/r 20208000705182161001

CHAKB “DAB BANK” Mirzo Ulug‘bek filiali

MFO: 010

STIR: 307128371

tel: +99899 858-9491

D. V. Xvan



### ХУЛОСА

Мазкур шартномадаги томонларнинг муносабатлари Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси, “Хўжалик юритувчи субъектларнинг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисидаги” Қонуни билан тартибга солинади. Томонларнинг шартномадаги шартлари ва жавобгарлик чоралари Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилиги талабларига жавоб беради.

Хуқуқшунос

Handwritten signatures and initials at the bottom of the page.